

---

## Sartaroshlik hunarini puxta egallagan Komiljon bir oyda o'rtacha 7 mln. so'm daromad topmoqda

Komiljon Zokirov "Madaniyat" mahalla fuqarolar yig'inida yashaydi. Sartaroshlik hunarini puxta egallagach, mahallada faoliyat olib borayotgan hokim yordamchisi Shavkatjon Komilov bilan faoliyatini kengaytirish bo'yicha fikr almashdi.

Yosh tadbirkor 32 mln. so'm imtiyozli kredit ajratilib, sartaroshlik va boshqa mijozlar uchun zaruriy jihozlar sotib olindi.

Sartaroshxonada mijozlar uchun barcha sharoitlar yaratilgach, Komiljonning oylik daromadi 7 mln. so'mga yaqinlashdi. Xona keng, yosh sartarosh ikki nafar sheriklari bilan aholiga sifatli xizmat ko'rsatishmoqda.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2023-05-11 22:20:47